



JURNALISTIKA - TARIX KO'ZGUSI

Jumaboyeva Madina Ravshanbek qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Maqolada jurnalistika haqida bir necha olimlarning fikrlari ko'rib chiqilgan, qaysi davrlarda, qanday ma'nolarda qo'llanganligi ochib berilgan, jurnalistika tarixni o'ziga xos kuzgusi ekanligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Jurnalistika, jamiyat, tarix, gazeta, OAV, matbuot, agentlik*

Jurnalistika sohasida olib borilgan tadqiqotlarga qaramasdan mazkur sohada o'zining javobini kutiyotgan masalalar ham yo'q emas. Biz mazkur ishimiz orqali mavjud adabiyotlarga tayangan holda shu masalalarning biriga o'z fikrimizni bayon etmoqchimiz.

Makur faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari va boshqalar) orqali tarqatish bilan shug'ullanadi. Jurnalistika ommaviy targ'ibot va tashviqot shakllaridan biri. Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog'liq. Jurnalistika atamasi dastlab jurnallar majmuiga, keyinchalik barcha davriy nashrlarga nisbatan qo'llanilgan.¹ Endilikda jurnalistika iborasi jurnalistika faoliyati mahsulini, shu bilan bog'liq kasblar majmuini, shuningdek, shu sohaga oid ta'limni va fan tarmog'ini ham anglatadi. Jurnalistika faoliyati tarkibiga matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari, hujjatli kino va boshqalar kiradi.²

Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari ommaning kundalik dolzarb ijtimoiy va maxsus axborotga bo'lgan ehtiyojini kiritishda, asosan, publitsistikaga tayanadi, shuningdek, muhim ijtimoiy masalalarni talqin qiluvchi ilmiy, badiiy va boshqa asarlardan ham foydalanadi. Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari o'z faoliyatida ma'lum davriylikka va tezkorlikka amal qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika sohalarining rivojlanishi jurnalistika hamda ilk davriy nashrlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Tarixdan bizga

¹ To'lqin Qozoqboev, Muxtor Xudoyqulov, Jurnalistikaga kirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2018, 56-bet

² Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? — T., 2001. 68-b.



ma'lumki, bog'lam-bog'lam qog'oz o'ramlariga yozilgan cherkov nomalari ilk hujjatli manbalar hisoblanadi. Yozuv uchun qulay bo'lgan qog'ozning paydo bo'lishi ham jurnalistikaning rivoji uchun asosiy turtkildan biri bo'lgan. Ayniqsa, Iogann Gutenberg (Germaniya, 15 asr) tomonidan ixtiro qilingan bosma harflarning majmui - alohida-alohida terilgan harflarning qolipidan istalgan matnni yozish imkoniyatini yaratdi. Bu esa muhim axborotlar tirajining kengayishiga va o'z-o'zidan oddiy o'quvchilar auditoriyasining paydo bo'lishiga olib kelgan. Soha tarixi haqidagi manbalarda aytilishicha, jamoatchilikning jurnalistika va davriy nashrlarga bo'lgan ehtiyoji 17-18 asrlarda kuchaya boshlagan va amalda matbuot bir necha turga bo'lingan - hozirjavob gazetalar, jurnallar, vaqti-vaqti bilan chop etiladigan taqvimlar, byulletenlar va ma'lumotnomalar³.

O'zbekiston axborot agentliklari faoliyatida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 1992-yildan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi "Jahon" axborot agentligi, 1995-yildan, O'zbekistondagi birinchi nodavlat ya'ni davlat tasarrufida bo'lmagan axborot agentligi 1998-yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi. Bu "Turkiston-press" axborot agentligi davlat axborot agentliklariga muqobil tashkilot bo'lib, u mamlakat axborot makomda o'ziga xos ahamiyatga ega. O'zbekistondagi axborot agentliklaridan yana biri Qoraqalpog'iston xabar agentligidir. Milliy mustaqillik davri jurnalistikasi borasida gap ketganda noshirlik masalalariga ham to'xtalib olish muhim. O'zbekiston hududida kitobning paydo bo'lishi haqida darslikning kitob va kitob nashriyotlari bobida batafsil to'xtalamiz. O'zbekiston hukumatining qarori asosida O'zbekistonda yirik nashriyot hisoblangan "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tashkil etildi. O'zbekistonda noshirlikka doir masalalar, asosan "O'zbekiston matbuoti" jurnalida hamda "Hurriyat" gazetasida yoritiladi. Milliy mustaqillik jurnalistikasi rivojini intemetsiz to'la ifodalash mumkin emas. Katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimi boigan internet bugungi kunda barcha an'anaviy axborot tizimlari - telekommunikatsiya, teleradio eshittirish, axborotlarni xalqaro miqyosda faol almashtirish va h.k. ning texnologik imkoniyatlarni uyg'unlashtirib qoilanilgani uchun u bir necha vazifani bajaradi.

³ To'liqin Qozoqboev, Muxtor Xudoyqulov, Jurnalistikaga kirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2018, 73-bet



Keyinchalik jamiyatda gazetaning roli yanada oshdi. XX asrning o'rtalarida mafkura maydoniga kirib kelgan kommunistik taiim ot ham o'z g'oyalarini ommaga singdirish uchun gazetadan keng foydalandi. Unga qarama-qarshi ravishda erkin dunyo matbuotining ifodasi bo'lgan gazetachilik ham o'sdi, taraqqiy etdi. Umuman olganda, matbuotning ilk ko'rinishi bo'lgan gazetalar ijtimoiy-siyosiy manfaatlardan tashqari umuminsoniy madaniy taraqqiyotga ham muhim hissa qo'shdi.⁴ Gazetalar o'zbek jumalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida eng ilk va hammabop turi bo'lib yuzaga keldi va shunday bo'lib qoldi. Ammo gazeta insoniyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun qanchalik xizmat qilmasin jamiyat taraqqiyoti yana bir matbuot turiga ehtiyoj sezdi, natijada yana yangi bir matbuot turi dunyoga keldi, u-“jurnal” deb nom oldi. Bu so'z fransuzcht “Journal” - “kundalik” degan ma'noni bildirsa-da, aslida har kuni emas - ko'proq muddatda - bir oyda bir marta chiqib turadigan matbuot turiga aytiladigan bo'ldi. Xo'sh jurnalning kelib chiqishiga sabab nima, uning jurnalistika tasnifidagi o'rni qanday?⁵

Aslida, matbuot - iqtisodiy zaruratdan paydo bo'lgan hodisa. Dastlabki gazetalar turli mazmundagi tijoriy ma'lumotlarni tarqatish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Ammo qisqa vaqt ichida anglab yetildiki, axborotni bunday ommaviy tarzda tarqatishning ko'pgina ijobiy tomonlari bor ekan. Natijada, har doimgidek, bu afzalliklarni, eng avvalo, davlat boshqaruvi va ruhoniylar o'z qo'llariga olib, ulardan to'liq foydalana boshladilar.

Ilk matbuot nashrlaridan, bir tomondan, yangiliklar shaklida axborot, ilm, ta'lim, ma'rifat, madaniyat tarqatish uchun foydalanilgan bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatni boshqaruvchi guruhlar va ijtimoiy qatlamlar ularni o'z maqsadlarida ma'lumot tarqatish, ya'ni, keng ommani o'zlarining g'oyalari doirasida saqlab turish uchun qo'llanganlar.

Shubhasiz, bugungi kunimizni televideniye, internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Televideniye va internet esa Jurnalistika sohasining asosini tashkil etadi Demak, jurnalistika sohasi har bir insonning hayotida muhim ahamiyatga ega. Bu so'zlarning asl ma'nosini anglash jurnalistika sohasiga kirish uchun birinchi eng muhim qadamdir. Bugungi shiddat bilan rivijlanib borayotgan mediamakonda

⁴ F. Mo'minov, A. Nurmatov va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. — T., «Fan va texnologiya», 2008, 42-b

⁵ Jalolov A., O'zganboyev X., O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. — T., «Fan», 1993.34-bet



Jurnalistika sohasi va jurnalistning vazifalari tobora ortib bormoqda. Internet oqimi kuchayib borar ekan, bu sohaning yelkasida katta mas'uliyat turibdi⁶.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'liqin Qozoqboev, Muxtor Xudoyqulov, Jurnalistikaga kirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2018
2. F. Mo'minov, A. Nurmatov va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. – T., «Fan va texnologiya», 2008,
3. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – T., 2001.
4. Jalolov A., O'zganboyev X., O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. – T., «Fan», 1993.
5. Shahnoza Abdukarim qizi Yangiboyeva, Jurnalistika sohasiga ilk qadam nimadan boshlanadi? «scientific progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 6

⁶ Shahnoza Abdukarim qizi Yangiboyeva, Jurnalistika sohasiga ilk qadam nimadan boshlanadi? «scientific progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 6 // 7-bet